



NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

**NAMANGAN
VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL
YANVAR-NOYABR**

2023-yilning yanvar-noyabr oyida, Namangan viloyatida jami **6595,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,2 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Yirik qurilish tashkilotlari

34,1

8,6

57,3


Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2023- yil 1- dekabr holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



886

Bino va inshootlar
qurilishi


253

Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

562

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda 69,3 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 52,1 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 14,9 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 33,0 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.12.2022- y.	01.12.2023- y.	
Namangan viloyati	2454	1701	69,3

tumanlar:

Mingbuloq	83	50	60,2
Kosonsoy	253	165	65,2
Namangan	116	75	64,7
Norin	134	101	75,4
Pop	119	100	84,0
To'raqo'rg'on	107	73	68,2
Uychi	250	174	69,6
Uchqo'rg'on	176	119	67,6
Chortoq	175	116	66,3
Chust	183	135	73,8
Yangiqo'rg'on	104	89	85,6
Namangan shahar	754	504	66,8
shundan			
Davlatobod	210	150	71,4
Yangi Namangan	172	128	74,4



**2023- yil 1- dekabr holatiga ko'ra
Namangan viloyatida
faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalarini ulushi, % da**




Namangan sh.(29,5)



Uychi (10,6)



Kosonsoy (7,9)





Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr uchun

	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	6595195,0	569318,4	3780827,9	2245048,7
<i>tumanlar:</i>				
Mingbuloq	247064,2	0,0	115958,2	131106
Kosonsoy	519046,2	57542,4	195427,2	266076,6
Namangan	467523,6	0,0	311337,4	156186,2
Norin	327971,1	0,0	178653,6	149317,5
Pop	433392,0	139011,4	169812,5	124568,1
To'raqo'rg'on	388940,7	17172,5	209858,7	161909,5
Uychi	700253,4	63456,1	465697,5	171099,8
Uchqo'rg'on	447223	2598,0	261320,3	183304,7
Chortoq	468237,6	0,0	278318,3	189919,3
Chust	353994,8	0,0	163360,5	190634,3
Yangiqo'rg'on	294376	3206,2	140742,5	150427,3
Namangan sh.	1947172,4	286331,8	1290341,2	370499,4
<i>shundan</i>				
Davlatobod	800810,4	48080,9	643077,7	109651,8
Yangi Namangan	440217,3	128459,8	220424,7	133588,1


2023- yilning yanvar-noyabr oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 569318,4 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 96,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,1 % punktga kamayib 8,6 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari


2023- yil yanvar- noyabr uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



MAʼLUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Pop tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 32,1 %) ga toʼgʼri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,3% i to‘g‘ri kelib, 2022- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 0,1 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 107,0 % ni tashkil etgan holda 3780827,9 mln. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




57,3

2023- yil
yanvar-noyabr

58,3


2022- yil
yanvar-noyabr



MA’LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Namangan shahri (1290341,2 mln. so‘m hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 66,3 %), Uychi tumani (465697,5 mln. so‘m yoki 66,5 %), Namangan tumani(311337,4) mln. so‘m yoki 66,8 %)ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 34,1 % ni tashkil etdi yoki 2245048,7 mln. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 198971,8 mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 6396223,2 mln. so‘m qurilish ishlari bajarildi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-noyabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin **77,3 %** yoki **5095733,9 mln. so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

11,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 569318,4 mln. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **11,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 2472607,0 mln. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **48,5 %** ni tashkil etdi

48,5 %

40,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **2053808,5 mln. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **40,3 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr oylarida


	Qurilish ishlari, mln. so'm	o'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Namangan viloyati	6595195,0	106,2	5095733,9
tumanlar:			
Mingbuloq	247064,2	116,6	198733,6
Kosonsoy	519046,2	108,4	382180,1
Namangan	467523,6	106,7	377084,3
Norin	327971,1	104,6	275169,6
Pop	433392,0	101,1	321031,3
To'raqo'rg'on	388940,7	109,0	280265,4
Uychi	700253,4	99,3	565626,5
Uchqo'rg'on	447223,0	106,1	361797,1
Chortoq	468237,6	102,7	351605,6
Chust	353994,8	106,3	290456,8
Yangiqo'rg'on	294376,0	98,4	259882,4
Namangan shahri	1947172,4	110,2	1431901,2
shundan			
Davlatobod	800810,4	124,8	606392,3
Yangi Namangan	482472,6	104,4	387275,8

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,4 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1% punktga kamayib, 47,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % punktga ko'payib, 46,2 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlari

- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 41,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 22,2 % punktga ko'paygan.
- Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 58,2 %ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 22,2% punktga kamaygan.


ulushi % da



2022- yil
yanvar-noyabr

2023- yil
yanvar-noyabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 11,3 % punktga kamaygan va 0,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 99,4 % ni kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 11,3 % punktga ko'paygan



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	2181,5	103,8
tumanlar:		
Mingbuloq	1827,4	114,0
Kosonsoy	2311,0	106,0
Namangan	2461,9	104,2
Norin	1887,1	102,5
Pop	1860,1	99,2
To'raqo'rg'on	1609,9	106,3
Uychi	3056,5	97,1
Uchqo'rg'on	2442,5	104,0
Chortoq	2208,7	100,6
Chust	1256,2	104,2
Yangiqo'rg'on	1258,0	96,1
Namangan shahri	2841,8	107,3

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-noyabr



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Uychi tumani 3056,5 ming so'm yoki, 2022- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 97,1 %, undan keyin mos ravishda Namangan shahar – 2841,8 ming so'm (yoki 107,3 %), Namangan tumani – 2461,9 ming so'm (yoki 104,2 %) tumanlari egalladi.

**Namangan viloyati Investitsiyalar va
qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(69) 227-84-85**